# REKTOR STIPENDIYASI

**2024-2025- o‘quv yili**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-61-sonli qarori (2-bandi 7-xatboshi) ijrosi yuzasidan iqtidorli va iste’dodli talabalarni aniqlash va rag‘batlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli va iste’dodli talabalarga “Rektor stipendiyasi” berish tartibi belgilangan.**



O'ZBEKISTON DAVLAT
JAHON TILLARI UNIVERSITETI

**“Rektor stipendiyasi” tanloviga 2024/2025 o‘quv yilining yanvar-iyun oylari uchun nizomning I-bob, 1.2.-bandiga asosan 46 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 48 ta kvotalar ajratilgan.**

**01** **Mazkur tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan 46 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fakultetlardan 24 nafar talabgorning arizalari kelib tushdi.**

**02** **“Stipendiya”ni tanlovini o‘tkazish bo‘yicha arizalar Nizom talablari asosida ko‘rib chiqildi. Joriy yilning 10-11-oktabr kunlari O‘zbek tili hamda Tarix fanlaridan nizomning IV-bob, 4.5.-bandiga asosan imtihonlar tashkil etildi.**

**03** **O‘zbekiston tarixi fanidan biletlarda berilgan savollarga yozma javob berildi. Davlat tilida insho yozildi. “Rektor stipendiyasi” nomidagi stipendiyasiga talabgorlardan olingan imtihon natijalarini baholash mezoni asosida 17 nafar talabgor ijobiy baholandi**

**04** **Iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga keng jalb etish maqsadida “Rektor stipendiyasi” tanloviga Ilmiy Kengash a’zolari rozilik ovozi bildirsa ushbu 7 nafar zahira nomzodga bo‘sh qolgan kvotalar to‘ldirilsa, talabalar uchun imkoniyat beriladi**

Oliy ta’lim, fan innovatsiyalar vazirining 2024-yil 15-iyuldagi 247-son “Respublika oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasini o‘tkazish to‘g‘risida”gi buyruqlari asosida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2024-yil 26-27-sentabr kunlari fan olimpiadasining Respublika bosqichi o‘tkazildi



Mazkur olimpiadada 9 ta xorijiy til bo‘yicha 31 ta oliy ta’lim muassasalaridan 93 nafar talabalar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazishdi



2024-yil 26-sentabr kuni Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiada tanlovining Respublika bosqichining 1-shart mamlakatshunoslik, adabiyot, grammatik va leksik materiallar asosida TEST



2-shart badiiy filmdan parcha ko‘rish va mazmunini YOZMA bayon etish va 3-shart o‘zbek yoki rus tilidagi matnni chet tiliga TARJIMA qilish bosqichlari o‘tkazildi



Fan olimpiada tanlovining Respublika bosqichining 4-shart tili o‘rganilayotgan mamlakatning davlat tizimi, iqtisodiyoti va san’ati buyuk siymolari toshlar hayoti va shu kabilar haqida SUHBAT boshqichi o‘tkazildi



Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida xorijiy tillar fan olimpiadasini o‘tkazish bo‘yicha 25 nafar g‘olib ishtirokchilarning ro‘yxati tasdiqlandi va rag‘batlantirildi. Shundan, O‘zDJTU talabalari

I-o‘rin 4 nafar

II-o‘rin 1 nafar

III-o‘rin 3 nafar